

JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTONDAGI TA'LIM- TARBIYA VA MAORIFGA TA'SIRI

Ashurova Sarvara Turg'unali qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

sarvara.ashurova1205@gmail.com

Tilavova Shahnoza Salohitdinova

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining Turkistondagi ta'lim-tarbiya va maorifga ta'siri, jadidchilikning matbaa va nashriyotdagi faoliyati, jadidchilik ta'sirida Turkistonda yuzaga kelgan vaziyat ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, ta'lim, tarbiya, savodxonlik, "Sadoi Turkiston" "Taraqqiy" pedagogika, "Muzaffariya".*

KIRISH

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan islohotchi madaniy harakat bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ilm-ma'rifat orqali yangilash va rivojlantirish edi. Bu harakat vakillari zamonaviy bilimlar bilan qurollanib, millatni rivojlanishga yetaklashga intildilar. Ular an'anaviy ta'lim tizimini isloh qilishni Turkiston jamiyatining rivoji uchun asosiy omil deb bilishardi.

Jadidlar dastlab maktab va madrasa tizimini isloh qila boshlashdi. An'anaviy maktablarda o'quv dasturlari faqat diniy bilimlarga asoslangan bo'lib, dunyoviy fanlar va zamonaviy o'qitish usullari e'tibordan chetda qolgan edi. Jadidlar bu holatni o'zgartirish uchun yangi usul maktablarini tashkil etishdi. 1892-yilda Ismoil Gaspirali Turkistonga tashrifi ham jadidchilik g'oyalarining keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatdi. U chor ma'murlari xukmdorlari va Buxoro amiri Abdulaxadxon qabulida bo'ldi. U Buxoro amirini qiyinchilik bilan amirlik poytaxtida yangi usul maktabi ochishga kondirishga erishdi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi berildi.[1] 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablari ochdilar. 1903-yilga kelib birgina Turkiston o'lkasida 100 dan ziyod boshlang'ich jadid usuli maktablari ochilgan edi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Bexbudi, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o'nlab milliy ziyolilar rahnomolik qildilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning "Usto'zi avval" (1903), Munavvarqorining "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir. Jadidlar yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar.[2]

Yangi usul maktablarida arab yozuvi asosida fonetik usulda savod o'rgatilgan va matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlar o'rgatilgan. 10. Bundan tashqari,

o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy qilindi. O'quv dasturlarining kengayishiga katta e'tibor qaratdilar. Jadid maktablarida milliy uyg'onish g'oyalarini shakllantirishga qaratilgan dasturlar tuzildi. Ular milliy til va adabiyotning rivojlanishiga katta e'tibor qaratgan.[3]

Jadidlar nafaqat ta'lim, balki tarbiyani ham isloh qilishga alohida e'tibor qaratdilar. Ularning fikricha, milliy uyg'onish uchun yoshlarga nafaqat bilim, balki milliy g'urur, ozodlik va ma'naviyat tuyg'ularini singdirish lozim edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida o'qituvchilar yoshlarda Vatanparvarlik, Islomiy ma'naviyat va zamonaviy dunyoqarash, xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi sifatlarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berdilar.

Jadidchilik harakati doirasida bosma nashrlar muhim o'rin tutdi. Ular gazeta va jurnallar orqali ta'lim-tarbiya va ma'rifat g'oyalarini keng targ'ib qildilar. Jumladan: "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", va boshqa gazetalarda zamonaviy ta'lim ahamiyati yoritildi.[6] Nashrlarda pedagogika va psixologiyaga oid maqolalar chop etilib, o'qituvchilar va ota-onalar uchun metodik ko'rsatmalar berildi. Hatto yoshlarni ilm olishlari uchun chet davlatlarga o'qishga o'z hisoblaridan yuborish tashabbusi bilan chiqishdi va bu yo'lda "Tarbiyai atfol" jamiyatni tuzishdi. Tarbiyai atfol (Bolalar tarbiyasi) — Buxoro jadidlari tashkil etgan ma'rifiy jamiyat (1908—14). Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo'ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar asos solishgan. Jamiyat faoliyatida S. Ayniy, Usmon Xo'ja, M. Saidjonov va boshqa muxim rol o'ynagan. Jamiyat a'zolari soni 100 ga yaqin bo'lib, ularni Muhiddin Mansurov, Sadr Ziyo moddiy jihatdan qo'llabquvvatlagan. "Tarbiyai atfol" iste'dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo'llabquvvatlash, bu maktablar uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko'rsatish ishlari bilan shug'ullangan.

Jadidchilik harakati natijasida Turkistonda muhim o'zgarishlar kuzatildi. Masalan: Milliy uyg'onish g'oyalari kuchayishi, ta'lim-tarbiya orqali millat o'zligini anglash jarayoni tezlashishi, savodxonlikning oshishi, yangi usul maktablari orqali jamiyatning savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshishi, dunyoviy ta'limning rivoji kabilar. An'anaviy ta'limdan dunyoviy fanlarga asoslangan zamonaviy ta'lim tizimiga o'tish boshlandi.

Jadidchilik harakati davomida ularning o'z matbuoti shakllandi. Jadidlar bolalar va kattalar uchun zamonaviy darsliklar, qiziqarli hikoyalar, ma'rifiy asarlar yozdilar. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Shu bilan birga, ular nashriyot va matbaalarni rivojlantirib, o'z kitoblarini chop etish orqali kengroq auditoriyaga yetib bordilar. Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni „har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi millat ongining ochqichi“ ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda „Erk“, „Turon“, „O'qituvchilar jamiyati“ kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek, „Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-

huquqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi“.[4]

Xulosa

Jadidchilik harakati Turkiston jamiyatining ta'lim va tarbiya sohalariga tub o'zgarishlar olib kirdi. Ular jamiyatni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qildilar. Ushbu harakat milliy uyg'onish va mustaqillikka intilish yo'lidagi muhim bosqich bo'lib, uning merosi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, A. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2010.
2. Abdurashidov, S. Turkiston ma'rifatchiligi va jadidchilik. Toshkent: Sharq, 2008.
3. Rasulov, H. Jadid maktablarining ta'lim-tarbiya tizimi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.
4. Abdurashidxonov M., Xotiralarimdan, Toshkent, 2001;
5. Ayniy Sadridin, Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, M., 1926; Xo'jayev Fayzulla, Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, T., 1997; Ergashev B.X., Ideologiya natsionalno-osvoboditelnogo dvijeniya v buxarskom emirate, T., 1991 Qahramon Rajabov.
6. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
7. "Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi.
8. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b. . Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
9. Turdaliyev, T. T. (2015). Turkiston Jadidchilik harakati namoyandalari. O'zbek adabiyoti efrilarining ilmiy hayoti. Toshkent: Yangi Nashr.
10. Juraev, A. B. (2018). Turkiston Jadidchilik harakati o'quv uslubi. Ma'naviy meros va zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston adabiyoti va san'ati nashriyoti.